



“TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TADQIQIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



JAHON VA MILLIY TAFAKKURDA FEMENIZM TUSHUNCHASINING AHAMIYATI

Egamberdiyeva Kamola Ibroximovna –
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Namangan davlat universiteti doktoranti, dotsent v.b.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17272065>

Annotatsiya: Mazkur maqolada jahon va milliy tafakkurda feminizm tushunchasi, ayol qismati, uning ruhiyatini hikoyalardagi badiiy aks ettirishi o'rganilgan. Shuningdek, adabiyotshunoslikda ayol ruhiyatini uning qismatini tadqiq etish badiiy adabiyotning bosh xususiyatlaridan biri ekanligi tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: feminizm, hikoya, ayol, badiiy adabiyot, davr.

Аннотация: В статье исследуется концепция феминизма в мировой и отечественной мысли, художественное отражение женской судьбы, психики в произведениях. Также рассматривается, что в литературоведении изучение женской судьбы и психики является одной из основных особенностей художественной литературы.

Ключевые слова: феминизм, повесть, женщина, художественная литература, эпоха.

Abstract: This article studies the concept of feminism in world and national thought, the artistic reflection of the fate of women, their psyche in stories. It is also studied that in literary criticism, the study of the fate of women's psyche is one of the main features of fiction.

Keywords: feminism, story, woman, fiction, era.

“Ayol kim?” – bu banibasharning azaliy va abadiy savoli. O'tgan ming yillar davomida din, falsafa, tarix, san'at, siyosat, ruhshunoslik, jamiyatshunoslik kabi sohalar mazkur savolga javob izladi. Nafaqat javob izladi, balki javob izlash jarayonida taraqqiy etadi. Ya'ni bu savol barcha madaniy, ijtimoiy, axloqiy, iqtisodiy, siyosiy tuzilmalarning shakllanishi va rivojlanishiga asos bo'ladi.

Tarixan har bir yangi davr ayolning borliqdagi o'rni, ruhiy dunyosi, ayolning hayotiy maqsad va vazifalarini o'ziga xos tarzda tushunish hamda talqin qilish evaziga vujudga kelgan. Zero, ayol zoti o'zi haqidagi tasavvurlari, xulosalariga tayanib jamiyatni tartibga soladi. Yashash tarzi, dunyoqarashini “ayol o'zi kim?” savoliga javob izlash o'laroq shakllantiradi. Muhim jihati shuki, ushbu savolning javobi bashar uchun yagona emas. Turli din, millat, madaniyatlarda, hatto, yakka individlarda javoblar farqli bo'lishi mumkin. Biroq javoblar har qancha farq qilmasin, bu savol ayolarlarni birlashtirishga, hayotiy maqsad va vazifalarini umumlashtirishga qodir.

Islom diniga ko'ra, Alloh ayolni barcha maxluqotlar ichida aziz va mukarram etib yaratdi. Bu haqida Qur'oni Karimda shunday bayon etiladi: “Esla, o'shanda



“TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TADQIQIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



Robbing farishtalarga: “Albatta, Men loydan bashar yaratguvchidirman. Bas, uni rostlab, ichiga ruhimdan puflaganimda, unga sajda qilib yiqilinglar!” degan edi. Bas, farishtalarning barchalari jamlanib, sajda qildilar” (“*Sod*” surasi, 71-73 oyatlar). Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf mazkur oyatni tafsir qilarkan, “Alloh taolo O‘z ruhidan puflagani loyni oliy maqomga ko‘tardi. Aynan ana shu ruh uni boshqa jonzotlardan ajratdi, ularning hammasidan ustun qildi. Aynan o‘sha ruh Odamga farishtalar sajda qilishlari uchun sabab bo‘ldi” [2: 210] deb aytadi. Islom odam bolasining gunohkor va ojizligidan ko‘ra, uning aziz ekaniga ko‘proq e‘tibor qaratadi. Inson haqidagi ta‘limotlar negiziga avvalo azizlik sifatini qo‘yadi.

Qur‘oni Karimda insonning yaralishi, umuman, uning mavjudligidagi haqiqati ham ochiq-oydin bayon etilgan: “Jin va insonni faqat Menga ibodat qilishlari uchungina yaratdim” (“*Zaariyaat*” surasi, 56-oyat). Mazkur oyat tafsirida “Odamlar va jinlarning yaratilishidan yagona maqsad Allohga ibodat qilish ekan” deyiladi. Shu bilan birga, oyatdagi “ibodat” so‘zi keng ma‘noda “har bir ishda Allohga bo‘ysunish, itoat qilish, Allohning amrlarini bajarish, huzurida o‘zini past olish Allohga ibodat qilishni” [1: 56] anglatishi alohida urg‘ulanadi.

Qur‘on oyatlari va tafsirdan keltirgan iqtiboslarimizda ilmiylik nuqtayi nazaridan e‘tibor qaratishimiz lozim bo‘lgan muhim nuqta shuki, islomda insonning maqomi ham, hayotiy maqsad va vazifalari ham mutlaq aniq va tugal. Ayni shu jihat dinni insonga bo‘lgan munosabatda fan, falsafa va san‘atdan farqlaydi. Agar din odamni anglangan va qismati tugal belgilangan maxluq sifatida ko‘rsatsa, fan, falsafa va san‘at insonni hali to‘la anglanmagan xilqat sifatida tadqiq va talqin qiladi.

Jahon adabiyoti, jumladan, o‘zbek adabiyotida ayol timsoli, uning jamiyatdagi mavqeyi va roli, erkaklar bilan teng huquqli deb qaralishi lozimligi to‘g‘risida yaratilgan badiiy asar namunalari alohida ahamiyatga ega. Ularni bir tizim sifatida qarab o‘rganish esa doim dolzarb bo‘lib kelgan.

Jahon adabiyotida ayollar huquqlari va ularning jamiyatdagi mavqeyi masalasi haqida gap borar ekan, unda gender tenglik mavzusining ko‘tarilishi ko‘p yillar davomida ayollar huquqlarining poymol etilganligiga qarshi jamiyat ziyolilari tomonidan ayollar huquqlarining himoya etilishi bilan ham bog‘liq.

Amerikalik olim Djon Mani 1955-yilda “gender” atamasini birinchilardan bo‘lib fanga ma‘lum qiladi. Oradan biroz fursat o‘tib bu atama keng tarqalgan. Bunga asosiy sabab ushbu tushuncha feminizm oqimi tarafdorlari tomonidan ommalashtirildi. “Feminizm” tushunchasi ham dastlab G‘arbda paydo bo‘lgan. O‘tgan XX asrda G‘arb ayoli faqat uy-ro‘zg‘or yumushlarini bajaruvchi shaxs sifatida tasavvur paydo qilgan. Bunda ayollar huquqlarining himoyasizligi, ularning



“TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TADQIQIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



jamiyat hayotidagi nafaol ishtiroki bilan ham izohlanadi. Bunday holatga ko‘nika olmaslik feminizm oqimining vujudga kelishiga sharoit yaratgan.

Qalam ahli adabiyotni jamiyatning shaffof ko‘zgusi sifatida qabul qilar ekanlar, bunda obyektiv yondashilgan asarlarga badiiy asar umrboqiyiligiga amin bo‘ladilar. Adabiyotning abadiy mavzusi sifatida ayollar, nafaqat erkak yozuvchilar, balki adibalar asarlarida ham o‘ziga xos tarzda ifodasiga ega bo‘lib, adabiyotshunoslikda bunday yondashuv feminist tanqidchilik nomi bilan yuritilgan. Feminist tanqidchilik adabiyotshunoslikka rasmiy ravishda 1960- yillarda kirib keldi. Ammo bu jarayongacha ko‘p asrlik ayollar huquqlari va ularning jamiyatdagi o‘rni xususida yozilgan asarlar hamda ayol erki uchun kurashgan yozuvchilar ijod qilgan bo‘lib, ular tom ma‘nodagi feminist tanqidchilikning poydevoriga asos solgan edilar. Jumladan, Mari Volstonkraftning “Ayol huquqlari himoyasi”[3], Jon Stuart Milning “Ayolni bo‘ysundirish”[4], Margaret Fullerning “O‘n to‘qqizinchi asrda ayol” [5] kabi asarlari o‘z davri va feminist tanqidchilikning shakllanishida muhim rol o‘ynadi.

Darhaqiqat, ayollar va erkaklar huquqlaridagi tenglik masalasi qadim zamonlardan buyon qizg‘in bahslarga sabab bo‘lgan. Eramizdan avvalgi V asrda yashagan sofist Antifont o‘z asarlarida barcha odamlarning tabiat tomonidan teng qilib yaratilgani haqidagi g‘oyani birinchi bo‘lib ilgari surgan. Uning fikricha, tabiat barchani: ayolni ham, erkakni ham teng qilib yaratadi, lekin insonlarni tengsiz holatga soluvchi qonunlar, odamlarning o‘zaro kelishuvi natijasidir. Erkak va ayolning huquqi barobar ekanligini faylasuflar o‘z nazariyalarida e‘tirof etishgan. Ya‘ni buyuk mutafakkir olim Pifagor o‘z falsafiy qarashlarida ayol va erkak huquqlarining tengligi haqidagi fikrini ilgari suradi. Pifagorning maslakdoshlari esa bu fikrni davom ettirishgan. Ular inson hayoti adolat va ma‘lum chegara, ya‘ni o‘z o‘rnini bilish va his qilish asosida qurilishi lozimligini ta‘kidlaydi. [6: 59] Ushbu mazmundagi g‘oyani yunon mutafakkiri Suqrot qonunlarning obyektiv axloqiy tabiati to‘g‘risidagi falsafiy ta‘limotida rivojlantirdi. Jumladan u ham insonlarning tabiiy huquqlari tengligini e‘tirof etar ekan, polisning mantiqan to‘g‘ri va adolatli qonunlargagina bo‘ysunishi lozimligini va faqat shundayholatda inson erkinligini ta‘minlash mumkinligi g‘oyasini ilgari suradi[7: 16].

Jamiyat qiz farzand dunyoga kelishi bilanoq uning ixtiyori otasida bo‘lishi, to voyaga yetguniga qadar ham og‘ir mehnatga jalb qilinishi, voyaga yetmasdan turmushga chiqarilishi, uning xohish-istaklari hech kimni qiziqitmasligi ushbu jins vakillarini hayotda ruhan ezilishga olib keldi. Bu jarayon ayol ruhiyatidagi qullik, itoatkorlik hissining yanada oshishiga sabab bo‘ldi. Natijada ayollarning o‘zlariga yanayam past nazar bilan qarashlari, o‘zlarini yaxshi ko‘rish, hurmat qilish emas



“TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TADQIQIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



hissiyotlarining tanazzuli vujudga kela boshlagani ayonlashadi. Qadimgi Hindistonda ham ayol turmush qurish, bola tugʻishdan boshqa hech qanday huquqqa ega boʻlmagan. U nopok tamoyilga, zaif feʻlga, yomon axloqqa ega deb hisoblangan. Manu III qonuni boʻyicha ayol bolaligidayoq otasiga, yoshligida eriga, erining vafotidan soʻng oʻgʻliga yo erining qarindoshlaridan birortasiga qaram boʻlishga majbur etilgan. Hatto baʼzi hududlarda eri oʻlgach, ayolga yashash taqiqlanardi. Oqibatda marhum eri bilan uni tiriklayin yoqib yuborish anʼanasi paydo boʻlgan. Bunday notoʻgʻri tushunchalar, ayollarni kamsitishga, tahqirlashga olib keluvchi farazlar, nafaqat, Hindistonda balki, butun dunyoga yoyilgan. Qadimgi Yunonistonda ham ayollar hech qanday huquq va erkinliklarga ega boʻlmagan. Ular butun umri davomida, erkakning buyrugʻiga itoat etishi, uning xohlagan istaklarini bajarishga majbur etilgan. Ayol umrbod bir erkakning ixtiyorida boʻlib, hayot-mamoti oʻsha erkakka topshirilgan. Oʻsha erkak istagan ayoliga er sifatida oʻz xohishini taklif etar va ayolni zoʻrlab oʻz tasarrufiga olgan. Barcha mol-mulk erkakning ixtiyorida boʻlgan. Uning roziligisiz ayol hech qanday huquqqa qodir boʻlmagan. Ajralish masalasida er mutloq haq hisoblangan. Baʼzi bir hollardagina ayol ham ajralish istagini bildira olgan xolos. Bunday hollarda ayol boshiga adolatsiz boʻxtonlar yogʻilgan[8: 120]. Birgina misol tariqasida Isroillik Suadning “Alanga ichidagi ayol” biografik asarida ayollarning nafaqatjamiyatda, balki oilada oʻrni yoʻqligi, qiz farzand koʻrgan ayol hech qachon qadrlanmaganligini koʻrishimiz mumkin. Eng achinarli holati oila vakillari tomonidan (*erkaklar tomonidan*) opa-singillarni arzimagan gunohlari uchun ham oʻldirib yuborish holatlari uchraydi. Bu holatga hech kim aralashmagan, sabablari soʻralmagan, bir insonning yoʻq boʻlib qolishi odatiy holday qabul qilingan. Shuningdek, Suadning onasi 14 nafar farzandni dunyoga keltirgan boʻlsa-da, qiz farzand tugʻilsa oʻz qoʻllari bilan oʻldirilishi insonni larzaga keltiradi. Bu kabi holat nafaqat ayollarning haq-huquqidan mahrum etilgani, balki taqdirini ham oʻzgartirishga, inson sifatida qadr topmaganiga ishora edi.

Qadimgi Xitoyda ayol inson hisoblanmagan, hatto ism ham qoʻyishmagan. Ayollar raqam bilan chaqirilgan va shunga xos munosabat qilingan. Oʻgʻil bolalar maqbul hisoblangani holda, qiz bolalarga juda past nazar bilan qaralgan. Agar xitoy oilalarida qiz farzand dunyoga kelsa, bu ular uchun farzand deb hisoblanmagan. Xitoyda qizlar xuddi oddiy buyumdek savdo qilinib, kim oshdi savdosida sotilar va natijada kim koʻproq haq toʻlasa, qiz oʻsha odamning izmida boʻlgan. Ular erkaklar bilan birga oʻtirib ovqatlana olishmas, faqat churq etmay ularning barcha xohish-istaklarini bajarishardi. Ayollar turmushga chiqqach merosdan mahrum etilgan. XX asrgacha boʻlgan davrlarda Xuanxe va Yanszi daryolari sharafiga oʻtkaziladigan



“TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TADQIQIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



bayram marosimlari, ayniqsa, xitoy qizlari uchun daxshatdan boshqa narsa bo‘lmagan. Chunki har yili ushbu daryolarga qurbonlik qilish maqsadida qizlarning eng go‘zallari tanlab olinib daryoga cho‘ktirilgan[9: 310]. Huquqiy ongning umuman mavjud bo‘lmagani, o‘z sha’ni, qadr- qimmatini toptalishini oddiy hol sifatida qabul qilish shunday ayanchli hayot tarziga ko‘nib yashashga, moslashishga olib kelgan.

Islomgacha bo‘lgan davrda Arabiston yarimoroli aholisi o‘rtasida ayolning hech qanday o‘rni ham, qadr-qimmatini ham bo‘lmagan. Bu holat farzandning tug‘ilishidan boshlanardi. Oilada o‘g‘il bola dunyoga kelsa, sevinishar, xursandchiliklar qilishar, qiz tug‘ilganda esa oilada motamsarolik hukm surib, tezda farzandni yo‘qotish payiga tushishgan [10: 12]. Islom dinining vujudga kelishi Arabistonda ijtimoiy-siyosiy hayotni muolaja qiluvchi bir dastur sifatida qarshi olindi. Hayotning barcha jabhalarini qamrovchi Islom dini ayollar haq-huquqlariga ham katta e‘tibor berdi[11: 20]. Islomda ayol va bolalarni o‘ldirish man etilgan. Bu haqida Qur’oni Karimda shunday deyilgan: “(Ey insonlar), bolalaringizni qashshoqlikdan qo‘rqib o‘ldirmangiz. Ularga ham sizlarga ham Biz rizq berurmiz. Ularni o‘ldirish, shubhasiz, katta xatodir” (“Al-Isro”). Islomda ayollarga yaxshi muomalada bo‘lishlik, ayollarga qo‘l ko‘tarmaslik, ayollarni ilm olishlari uchun sharoitlar yaratib berish haqida gap boradi. Bu xususda payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) “Sizlarning yaxshilaringiz ayollarga, zavjalariga yaxshi muomalada bo‘lganlaringizdir, ayollar xususida Allohdan qo‘rqingiz. Zero, siz ularni Allohdan omonat o‘laroq olgansiz” deya ta’kidlaganlar. Ayollarning ilm olishi xususida Qur’oni Karimda juda ko‘plab oyatlaridauchratishimiz mumkin. Shulardan bittasi: “Ilm talab etmoq har bir musulmon erkak va ayol uchun farzdir” hadisi yoki “Muslima ayollarning ilm olishini din ta’qiq qilgan yoki ta’qiq qilaydi iddaosini ilgari sursa, bilingizki, u kimsa Islomga xiyonat etgan” degan hadislar keltirib o‘tilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шайх Абдулазиз Мансур Куръони Карим маънолар таржимаси.. – Тошкент: Ислон университети, 2004.
2. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Ҳадис ва ҳаёт (Анбиёлар қиссаси). – Тошкент: Ҳилол–Нашр, 2021.
3. Mary Wollstonecraft. A.Vindication of the Rights of Woman. – Boston 1792.
4. John Stuart Mill. The Subjection of Woman. – London 1869.
5. Margaret Fuller. Woman in the Nineteenthcentury. – New York. 1845.
6. Антология мировой философии. Т. 1. – Москва: Наука, 1969.
7. Николаев Н. Кто такой Пифагор: универсальная энциклопедия. Т. 2. –Москва: Наука, 2017.
8. Кессиди Ф. Сократ. – Москва: Наука, 1988.
9. Ўразалиева Г.Б. Гендер муносабатларининг аёллар ҳуқуқий маданиятини



“TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TADQIQIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR” *mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya*



такомиллаштиришга таъсири. – Тошкент, 2006.

10. Усачева Н. Женщина: её статус, судьба и образ мировой культуре.
11. Алматы: Гылым, 1994.
12. Азимов А. Ислом ва ҳозирги замон. – Тошкент: Ўзбекистон, 1991.
13. Жабборов С. Муслмон ҳуқуқи ва одат нормалари – Тошкент: Фан, 2001.